XALQ DEPUTATLARI ASAKA TUMANI KENGASHI QARORI

Asaka tuman, Sohil bo'yi ko'chasi, 2-uy

2024 - yil 14 - fevral VI-62-6-1-17-K/24 Asaka tumani hokimligi

Asaka tuman mahalliy byudjetining 2023-yil ijrosi va orttirib bajarilgan (erkin qoldiq) mablag'larni yo'naltirish to'g'risida

Mahalliy byudjet daromadlarining 2023-yil IV chorak aniqlangan reja ko'rsatkichi 43 mlrd 117,5 mln.so'm bo'lib, amalda 51 mlrd 700,9 mln.so'mga, rejaga nisbatan 8 mlrd 583,4 mln.so'm yoki 119.9%ga bajarildi.

Jumladan soliq turlari bo'yicha:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i rejasi 21 mlrd 617,2 mln.so'm bo'lib amalda 30 mlrd 410,0 mln. so'm 140,7 %ga bajarildi;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i rejasi 651,0 mln.so'm bo'lib, amalda 549,2 mln.so'm 84.4%ga bajarildi;

- yagona soliq to'lovidan ajratmalar rejasi 2 mlrd 327,0 mln.so'm bo'lib, amalda 2 mlrd 648,2 mln.so'm 113,8%ga bajarildi;

- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq rejasi 3 mlrd 726,0 mln.so'm bo'lib, amalda 4 mlrd 621.1,0 mln.so'm 124%ga bajarildi;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i rejasi 7 mlrd 643 mln.so'm bo'lib, amalda 7 mlrd 616 mln.so'm 99,7 %ga bajarildi;

- yuridik shaxsrdan olinadigan yer solig'i rejasi 2 mlrd 995,0 mln.so'm bo'lib, amalda 2 mlrd 711,2 mln.so'm 90,5 %ga bajarildi;

- yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq rejasi 3 mlrd 500,5 mln.so'm bo'lib, amalda 1 mlrd 903,7 mln.so'm 54,4 %ga bajarildi;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq rejasi 1 mlrd 308,7 mln.so'm bo'lib, amalda 1 mlrd 4,4 mln.so'm 76,8 %ga bajarildi.

Yuqoridagilarga ko'ra viloyat byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblar hamda aylanma kassa miqdori hisobga olinganda Asaka tumani mahalliy byudjetining yil boshiga shakllangan erkin qoldiq miqdori **9 mlrd 358 mln 415** ming.so'mni tashkil etdi.

Ushbu erkin qoldiq mablag'lardan 30 foiz qismi 2 mlrd 807 mln 525 ming.so'mi "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasiga, qolgan 6 mlrd 550 mln 890 ming.so'mi tumanning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy

xarajatlari uchun yo‘naltirilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, mahalliy byudjetining 2023-yil yillik aniqlangan xarajatlar rejasi 449 mlrd.so‘mni tashkil etib, 448 mlrd 847 mln.so‘mi moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 99,9 foizga bajarilgan. Jumladan;

Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari aniqlangan xarajatlar rejasi 5 mlrd 91 mln.so‘mni tashkil etib, 5 mld 90 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 99,9 foizga;

- Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari bo‘yicha byudjetda ko‘zda tutilgan muassasani saqlab turish uchun 4-guruh xarajatlari aniqlangan xarajatlar rejasi 43 mlrd 596 mln.so‘m bo‘lib, 43 mlrd 596 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, ijro 100 foizga mablag‘larni moliyalashtirish ta’minlangan.

Tuman tibbiyot birlashmasi;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari aniqlangan xarajatlar rejasi 107 mlrd 438 mln.so‘mni tashkil etib, 107 mlrd 437,6 mln 884 ming.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 99,9 foizga;

- Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari bo‘yicha byudjetda ko‘zda tutilgan muassasani saqlab turish uchun 4-guruh xarajatlari aniqlangan xarajatlar rejasi 23 mlrd 881 mln.so‘m bo‘lib, 23 mlrd 881 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, ijro 100 foizga mablag‘larni moliyalashtirish ta’minlangan.

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari aniqlangan xarajatlar rejasi 12 mlrd 793 mln.so‘mni tashkil qilib, 12 mlrd 793 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 100 foizga;

- Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari bo‘yicha byudjetda ko‘zda tutilgan muassasani saqlab turish uchun 4-guruh xarajatlari aniqlangan xarajatlar rejasi 9 mlrd 933 mln.so‘m bo‘lib, 9 mlrd 931 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, ijro 99.9 foizga mablag‘larni moliyalashtirish ta’minlangan.

Madaniyat, sport va fan sohasi muassasalariga;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari aniqlangan xarajatlar rejasi 17 mlrd 303 mln.so‘mni tashkil etib, 17 mlrd 302,5 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 99,9 foizga;

- Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari bo‘yicha byudjetda ko‘zda tutilgan muassasani saqlab turish uchun 4-guruh aniqlangan xarajatlar rejasi 2 mlrd 156 mln.so‘m moliyalashtirildi 2 mlrd 156 mln.so‘m miqdorida, ijro 100 foizga;

Qishloq xo‘jaligi soxasi muassasalariga;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari aniqlangan xarajatlar rejasi 3 mlrd 790 mln.so‘mni tashkil etib, 3 mlrd 790 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 100 foizga;

- Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari bo‘yicha byudjetda ko‘zda tutilgan muassasani saqlab turish uchun 4-guruh aniqlangan xarajatlar rejasi 586 mln 737 ming.so‘m moliyalashtirildi 586 mln 737 ming.so‘m miqdorida, ijro 100 foizga;

Boshqaruv organlari sohasi muassasalariga;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari aniqlangan xarajatlar rejasi 31 mlrd 240 mln.so‘mni tashkil qilib, 31 mlrd 229 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, rejaga nisbatan ijro 99 foizga;

- Hukumat qarorlari, Davlat dasturlari bo‘yicha byudjetda ko‘zda tutilgan muassasani saqlab turish uchun 4-guruh xarajatlari aniqlangan xarajatlar rejasi 27 mlrd 192 mln.so‘m bo‘lib, 27 mlrd 54 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, ijro 99 foizga mablag‘larni moliyalashtirish ta’minlangan.

Kam ta’minlangan oilalarga 14 yosh bola va moddiy yordam pullari aniqlangan reja 407 mlrd 705 mln.so‘mni tashkil etib, 407 mlrd 690 mln.so‘m miqdorida moliyalashtirildi, ijro 99.9 foizga bajarilgan.

Davlat dasturlari bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4351- sonli qaroriga asosan suv quygich uchun 1 mlrd 149 mln.so‘m va “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 46-sonli farmoniga ko‘ra esa avtominora uchun 1 mlrd 57 mln.so‘m mablag‘ moliyalashtirildi.

2023-yilning byudjet parametrlaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi 118-sonli qaroriga asosan 152 ta ijtimoiy soha obyektini issiqlik energiyasi bilan ta’minlashni davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish uchun 19 mlrd 406 mln.so‘m mablag‘ ajratildi.

Shuningdek, axoliga tibbiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash maqsadida tuman markaziy shifoxonasida tumanlararo shkastlanish va yurak-qon tomir kasalliklari bo‘limi qurilishi uchun 1 mlrd 400 mln.so‘m yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5072-sonli qarori ijrosi yuzasidan “Tashabbusli byudjet” loyihasi 1-mavsumida 28 ta loyihalarga 27 mlrd 80 mln.so‘m, 2-mavsumida 7 ta loyihalar uchun 9 mlrd 200 mln.so‘m jami 35 ta loyihalarga 36 mlrd 280 mln.so‘m mablag‘ ajratildi.

Yuqoridagilarga asoslanib, xalq deputatlari Asaka tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Asaka tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining Asaka tuman mahalliy byudjetining 2023-yil ijrosi va orttirib bajarilgan (erkin qoldiq) mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining tuman mahalliy byudjetini 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Asaka tuman hokimi birinchi o‘rinbosari, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan birgalikda:

- 2024-yil uchun belgilangan byudjet parametrlari ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash;

-byudjet daromadlari qismini ko‘paytirish choralarini ko‘rish, bu borada soliqqa tortilmay qolinayotgan obyektlarni aniqlash, yangi soliq obyektlarini tashkil etish, ularni qo‘llab-quvvatlash orqali soliq tushumlarini ko‘paytirish;

- har chorakda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi bilan birgalikda:

- mazkur qarorda ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi farmoyishlari loyihalarini tayyorlash;

- ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (B.Xamrayev) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z

vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Shuningdek, Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri va xodimlariga tegishli mehnat qonunchiligi va Kotibiyat Nizomiga asosan qo‘shimcha ish haqi, ustama va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun belgilangan miqdorda mablag‘lar ajratilsin.

7. Mutasaddi tashkilot rahbarlari ajratilgan mablag‘larni maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Q.Q.Qosimov**

Xalq deputatlari Asaka tuman
Kengashining
2024-yil 14-fevraldagi
VI-62-6-1-17-K/24-son qaroriga
1-ilova

Asaka tuman mahalliy byudjetining 2024 yil boshiga shakllangan erkin qoldiq

mablag‘larni yo‘naltirish hisobi

№	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Mablag‘ ajratish maqsadi	Ajratilayotgan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratish uchun asos
1	Tuman hokimligi	“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	70.000	PQ-5020, 05.03.2021
2	Tuman hokimligi	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	70.000	PQ-92, 19.01.2022
3	Tuman hokimligi	“Temir daftar” (saxovat va ko‘mak jamg‘armasi)ga	470.000	VM-213-F, 22.04.2020
4	Tuman hokimligi	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	2.807.525	PQ-5072, 13.04.2021
5	Tuman hokimligi	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga 2023 yildan bo‘lgan qarzdorlik	13.870	PQ-5072, 13.04.2021
6	Tuman hokimligi	Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompenchatsiya qilish (SNOS)	68.000	PQ-422, 29.12.2023
7	Tuman hokimligi	Ayol deputatlarni rag‘batlantirishga	10.000	
8	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish xodimlariga olingan maxsus kiyimdan bo‘lgan qarzdorlik uchun	75.000	
9	Obodonlashtirish boshqarmasi	Ichki ko‘chalarni shag‘allashtirish uchun olingan dizel yoqilg‘isidan bo‘lgan qarzdorlik uchun	91.000	
10	Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumanning markaziy ko‘chalariga ekilgan mavsumiy gullardan bo‘lgan qarzdorlik uchun	898.000	
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumanning markaziy ko‘chalariga ekilgan ko‘p yillik daraxtlardan bo‘lgan qarzdorlik uchun	107.500	
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	Tuman istiroxat bog‘ini ta’mirlash va obodonlashtirish xarajatlari	1.000.000	
13	Tuman hokimligi	Aholi uchun transformator va SIP kabellar sotib olish uchun	1.000.000	
14	Tuman hokimligi	Tumanning obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, kommunal xizmatlar ta’minotini yaxshilash hamda boshqa ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma xarajatlari uchun	2.677.520	
	Jami	**xxx**	**9.358.415**	**xxx**